



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

No. 2

## XALQ PEDAGOGIKASI VOSITALARINING ETNO-ESTETIK TARBIYADAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*Sultonova Gulasal Shodmonovna*, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch  
 doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatlardan keng ko'lamda tahlil etilgan. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, an'analari, xalq og'zaki ijodi hamda amaliy san'ati yosh avlodning etno-estetik madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, etno-estetik tarbiya, milliy meros, estetik madaniyat, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, kognitiv rivojlanish, madaniy identifikatsiya, amaliy san'at, xalq og'zaki ijodi.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ЭТНОЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

*Султонова Гуласал Шодмоновна*, докторант (PhD) Бухарского государственного  
 педагогического института

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль и значение средств народной педагогики в этно-эстетическом воспитании. Богатое духовное наследие узбекского народа, народное устное творчество, прикладное искусство и традиции анализируются как ключевые факторы формирования этно-эстетической культуры молодежи.

**Ключевые слова:** народная педагогика, этно-эстетическое воспитание, национальное наследие, эстетическая культура, будущий учитель, компетентность, культурная идентичность, прикладное искусство, устное народное творчество.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FOLK PEDAGOGY TOOLS IN ETHNO-AESTHETIC EDUCATION

*Gulasal Shodmonovna Sultonova*,

PhD Researcher, Bukhara State Pedagogical Institute

**Abstract.** This article offers a comprehensive scientific and theoretical analysis of the role and significance of folk pedagogy tools in ethno-aesthetic education. The rich spiritual heritage, oral folk literature, applied arts, customs and traditions of the Uzbek people are examined as essential determinants of the ethno-aesthetic cultural formation of the younger generation.

**Keywords:** folk pedagogy, ethno-aesthetic education, national heritage, aesthetic culture, future teacher, competency, cultural identity, applied arts, oral folk literature.

### KIRISH

Globalashuv jarayonlari jadal rivojlanib borayotgan, raqamli texnologiyalar yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy dunyosiga tobora chuqurroq kirib borayotgan bugungi sharoitda milliy o'zligini anglash, ma'naviy qadriyatlarni asrash va avloddan-avlodga yetkazish masalasi hal qiluvchi pedagogik muammoga aylanib bormoqda. Chunki globalashuv bir tomondan bilim va texnologiyalar almashinuvini tezlashtirsa, ikkinchi tomondan xalqlar madaniy xususiyatlarining silliqlashib ketishi, milliy o'ziga xosliklarning yo'qolishi kabi xavflarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohot siyosati ham ushbu muammoni manzilli hal etishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni ta'lim jarayonida milliy ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosni o'rganishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda yoshlarning milliy o'zligini anglashi, ularda estetik did va madaniy kompetensiyalarning rivojlantirilishi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xalq pedagogikasi vositalari alohida o'rin tutadi. Chunki xalq pedagogikasi — bu asrlar davomida millat tomonidan sinovdan o'tkazilgan, hayotiy tajriba bilan sayqallangan va ma'naviy qadriyatlarga yo'g'rilgan tarbiyaviy bilimlar tizimidir. U nafaqat o'tmishdagi tarbiyaviy merosni o'zida jamlabgina qolmay, balki bugungi kunda ham yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Etno-estetik tarbiya — bu shaxsning milliy estetik tafakkurini, madaniy identifikatsiyasini, go'zallik va ulug'vorlikni milliy ko'zqarash orqali his qilish hamda baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon. U universal estetik ta'limdan farqli ravishda konkret millatning ma'naviy dunyosi, badiiy an'analari va ijodiy merosiga tayanadi. Shu jihatdan xalq pedagogikasi vositalarini etno-estetik tarbiya bilan organik bog'liq holda tadqiq etish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning asosiy maqsadi: xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan aloqasini ilmiy asoslash, bo'lajak o'qituvchilarning etno-estetik madaniyatini shakllantirish jarayonida ushbu vositalarning imkoniyatlari va metodologik ahamiyatini yoritishdan iborat.

### **ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY ASOS**

Xalq pedagogikasi G.N. Volkov tomonidan mustaqil ilmiy soha sifatida asoslab berilgan bo'lib, u xalq pedagogikasini "xalq tarbiyaviy g'oyalari, qarashlari, mahorat va tajribalarining yig'indisi" deb ta'riflaydi (Volkov, 1999, s.12). O'zbek xalq pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslarini esa F. Qodirov (2001), R. Mavlonova (2003), N. Muslimov (2010) va boshqa mahalliy olimlar ishlab chiqqan. Ushbu tadqiqotlarda xalq pedagogikasining milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, uning komponentlari va tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan.

Xalqaro pedagogikada estetik tarbiya va madaniy rivojlanish masalalariga doir asosiy nazariyalar ham ushbu tadqiqotda tayanch bo'lib xizmat qiladi. L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bolaning estetik tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarining ijtimoiy muhit, ayniqsa madaniy vositalar ta'sirida rivojlanishini asoslab beradi (Vygotsky, 1978, p.86). J. Dyuning "tajribali o'rganish" konsepsiyasi esa ta'lim va hayotiy tajribaning uzluksiz aloqasini ta'kidlab, milliy madaniyat namunalarini bevosita kuzatish va ishtirok etish orqali o'rganishning afzalligini ko'rsatadi (Dewey, 1938, p.25).

H. Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi (Gardner, 1983) etno-estetik tarbiyaning milliy san'at, musiqa, xalq o'yinlari va amaliy hunarmandchilik orqali turli xil intellektual qobiliyatlarni (vizual-fazoviy, musiqiy, kinestetik, lingvistik) bir vaqtda rivojlantirishini asoslaydi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi (Bandura, 1977, p.22) esa o'qituvchi namunasining o'rganuvchiga ta'sirini ta'kidlaydi — ya'ni etno-estetik madaniyati rivojlangan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ham ushbu qadriyatlarni namuna orqali uzatishi mumkin.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi (Bronfenbrenner, 1979, p.41) yoshning estetik rivojlanishi mikro (oilalar, maktab) va makro (madaniyat, milliy meros) muhitlar o'zaro ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi. D. Kolbning tajribali o'rganish tsikli (Kolb, 1984, p.38) esa etno-estetik tarbiyada nazariy bilimlardan amaliy tajribaga va refleksiya o'tishning metodologik asosini beradi. Ushbu nazariyalar majmui xalq pedagogikasi vositalarini etno-estetik tarbiya bilan bog'lashning mustahkam nazariy poydevorini tashkil etadi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida A. Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1992) asari o'zbek milliy tarbiyasining asosiy manbasi sifatida, Abdurauf Fitratning milliy ta'lim nazariyasi va Alisher Navoiyning estetik-falsafiy merosi ham etno-estetik tarbiyaning chuqur tarixiy ildizlarini namoyon etadi. Zamonaviy o'zbek pedagogikasi nuqtainazaridan esa R. Mavlonova (2003), N. Musayeva (2015) va boshqa olimlarning etno-estetik kompetensiya masalalariga doir tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqot metodologiyasining asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: milliy ta'lim nazariyasi va xalq pedagogikasi sohasidagi ilmiy manbalarni tahlil qilish — sifatli va miqdoriy tahlil usullari; etno-estetik tarbiyaga doir xalqaro va mahalliy adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish; bo'lajak o'qituvchilar bilan olib borilgan amaliy ish tajribalarini umumlashtirish va tizimlash; pedagogik eksperiment va kuzatuv natijalari asosida xulosa chiqarish. Tadqiqotda fenomenologik va gersevevtik yondashuvlardan ham foydalanildi — milliy madaniyat va san'at namunalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash maqsadida.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Xalq pedagogikasi vositalarini etno-estetik tarbiya nuqtainazaridan uch asosiy guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh — og'zaki ijod vositalari (maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlar, xalq qo'shiqlari, lapar va askiyalar); ikkinchi guruh — amaliy va moddiy vositalar (kashtachilik, kulolchilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, an'anaviy kiyimlar, me'morchilik

namunalari); uchinchi guruh — marosim va an'ana vositalari (Navro'z, beshik to'yi, hosil bayrami, nikoh marosimlari, mehnat an'analari).

Ushbu uch guruh vositalar etno-estetik madaniyatning uch komponentiga bevosita mos keladi: **kognitiv komponent** (milliy meros haqida bilimlar) og'zaki ijod va tarix orqali, **hissiy-baholovchi komponent** (go'zallikni milliy ko'zqarash orqali his qilish) marosim va san'at namunalari orqali, **faoliyat-ijodiy komponent** (milliy san'at va hunarmandchilikni amaliyotda qo'llash) esa amaliy vositalar orqali rivojlantiriladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi etno-estetik tarbiyaning eng chuqur ildizlarga ega va eng ko'p qatlamli manbaya hisoblanadi. Xalq maqollari — masalan, "Odobning boshi – til", "Yaxshi so'z jon ozig'i", "Ilm – nurdur, jaholat – zulmat" — faqat axloqiy qoidalar emas, balki til, nutq va inson munosabatlarining estetik me'yorlarini ham belgilaydi. Ular inson hayotidagi go'zallik va uyg'unlikka oid xalq falsafasini jo'ngina, lekin qudratli tarzda ifoda etadi.

"Alpomish", "Go'ro'g'li" va "Kuntug'mish" kabi epik dostonlar esa yosh avlod uchun nafaqat millatning tarixiy xotirasini, balki botirlik, adolat, vatanparvarlik va insoniy ulug'vorlikning estetik ideallarini ham mujassamlashtiradi. Vygotskiyning ta'kidlashicha, epik janrlar bolaning kelajakka bo'lgan ideallar tizimini va emotsional-estetik reaksiyalarini shakllantiradi (Vygotsky, 1978, p.102). Dostonlarda tasvirlanadigan tabiiy go'zallik, qahramon go'zalligi va milliy manzaralar bolaning estetik tasavvur doirasini kengaytiradi.

Bolalar folklori — alla, topishmoqlar, bolalar qo'shiqlari va o'yin matnlari — esa Gardnerning musiqiy, lingvistik va kinestetik intellektlarini parallel ravishda rivojlantiradi (Gardner, 1983, p.99). Alla xalq musiqasiga ilk muhabbatngi shakllantirsada, topishmoqlar esa estetik tafakkur va ijodiy muammoni hal qilish qobiliyatlarini uyg'otadi. Tadqiqotimizda ishtirok etgan bo'lajak o'qituvchilarning 78 foizi xalq og'zaki ijodi namunalarini mustaqil dars ishlanmalarida qo'llashga tayyor ekanligi, ammo metodologik ko'nikmalar etishmasligini e'tirof etdi — bu esa pedagoglarga maqsadli tayyorgarlik zaruratini tasdiqlaydi.

Xalqimizning milliy marosimlari — Navro'z, beshik to'yi, hosil bayrami, an'anaviy to'ylar — bu faqat hayotiy voqealar emas, balki avlodlar o'rtasida madaniy va estetik tajribani uzatishning jonli mexanizmlaridir. Bronfenbrennerning ekologik model nuqtainazaridan qaraganda, ushbu marosimlar yoshning estetik rivojlanishiga ta'sir etuvchi "mikro" va "mezo" muhitlarning eng samarali shakli hisoblanadi (Bronfenbrenner, 1979, p.85).

Navro'z — bu tabiatning yangilanishi, inson va borliq uyg'unligining go'zal ifodasi. Ushbu bayram doirasida ijro etiladigan xalq ashulalari, ko'rik-tanlovlar, an'anaviy milliy taomlar va kiyimlar bilan bezatilgan muhit yoshlarda estetik muhit va tabiatga mehr tuyg'ularini uyg'otadi. Navro'zning estetik-tarbiyaviy kuchi shundaki, u ko'rish, eshitish, ta'm bilish va harakatning uyg'unligida — boshqacha aytganda, ko'p sezgi kanallarida — estetik tajribani bir vaqtda shakllantiradi. Bu esa Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi bilan to'liq mos tushadi.

Beshik to'yi milliy kiyim, musiqa, she'riyat va hunarmandchilikning uyg'unligida yangi avlod hayotini go'zallik bilan kutib olishning rituali sifatida milliy estetik qadriyatlarni ongsiz ravishda, lekin chuqur singdiradi. Tadqiqot ko'rsatdiki, marosimlarni pedagogik jihatdan tahlil etib, dars jarayoniga olib kiradigan o'qituvchilar o'quvchilarning madaniy identifikatsiyasi ko'rsatkichlarini 34% ga oshira olgan.

O'zbek xalq amaliy san'ati — kashtachilik, zardo'zlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, ganch ishlari, misgarlik — bu millat estetik tafakkurining moddiy-badiiy ifodasi bo'lib, asrlar davomida sayqallangan go'zallik falsafasini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu san'at turlari bilan tanishish faqat ko'zga go'zal ob'ektlarni ko'rsatib qo'ymasdan, balki yoshlarda kompozitsiya, rang, ritm, simmetriya va makon kabi estetik kategoriyalar haqida chuqur va jonli tushunchalar hosil qiladi.

Buxoro zardo'zligi — tilla va kumush iplar bilan naqshlangan liboslar — badiiy kamolotning yuksak namunasidir. Rishton kulolchiligida ishlatiladigan rang-barang sirlar va geometrik ornamentlar esa nafaqat ko'zni quvontiradi, balki matematik va geometrik tafakkurni ham rivojlantiradi. Gardner (1983, p.173) ta'kidlaganidek, vizual-fazoviy intellektni rivojlantirish uchun bunday amaliy san'at namunalari bilan faol muloqot qilish — ularni qayta yaratishga urinish, tahlil etish — passiv kuzatishdan ko'ra ancha samaraliroqdir. Shu sababli pedagoglarga "atelye-darslari" va hunarmand ustalari bilan uchrashuvlar orqali ta'lim berishning amaliy usullari tavsiya etiladi.

Kolbning tajribali o'rganish tsikli nuqtai nazaridan (Kolb, 1984, p.42): (1) amaliy san'at namunasi bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishish (konkret tajriba) → (2) namunani tahlil etish va shu san'atning tarixiy

ildizlarini o'rganish (reflektiv kuzatuv) → (3) estetik qonuniyatlar va milliy semiotikani anglash (abstrakt kontseptualizatsiya) → (4) pedagogik dars yoki ijodiy loyiha sifatida amaliyotga tatbiq etish (faol eksperimentatsiya) — to'liq bir ta'lim tsiklini tashkil etadi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda amaliy san'atni nafaqat bilim, balki pedagogik vosita sifatida qo'llashni ta'minlaydi.

Xalq o'yinlari — "Oq terakmi, ko'k terak", "Chillak", "Besh tosh", "Zanjirband", "Lazzat" va boshqalar — bu faqat jismoniy faollik shakli emas. Ular milliy ritm, harakat estetikasi, hamkorlik va musobaqa ruhini, an'anaviy she'riy matnlar va musiqani bir butunlikda birlashtiradi. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi nuqtai nazaridan (Bandura, 1977, p.47) xalq o'yinlari ijtimoiy xulq-atvor va estetik me'yorlarni "ko'rish + qatnashish" mexanizmi orqali ongsiz ravishda o'zlashtirishning eng samarali usullaridan biridir.

Xalq o'yinlarida Dyui nazariyasining "o'rganish-bu tajriba" (Dewey, 1938, p.62) tamoyili yorqin namoyon bo'ladi: o'yin jarayonida bola yutish va yutqazish, hamkorlik va raqobat, qoidalarga rioya qilish va ijodiy improvizatsiya kabi hayotiy tajribalarni estetik shakl bilan uyg'unlikda o'rganadi. Tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarning xalq o'yinlarini sinf faoliyatiga qo'shganidan keyin o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy va estetik muloqot sifati sezilarli darajada (29%) yaxshilangani qayd etildi.

Bo'lajak o'qituvchi — bu milliy ma'naviy merosning nafaqat o'rganuvchisi, balki avloddan-avlodga yetkazuvchisi hamdir. Shu sababli uning etno-estetik madaniyati shaxsiy estetik did va bilimdan ancha keng bo'lib, pedagogik kompetensiya sifatida shakllanishi zarur. Etno-estetik pedagogik kompetensiya — bu o'qituvchining milliy madaniyat va estetika sohasidagi bilimlarini ta'lim jarayonida faoliyat-ijodiy tarzda qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflanishi mumkin.

Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda uch komponentli model samarali bo'ldi: kognitiv komponent — milliy meros, xalq pedagogikasi vositalari va ularning nazariy asoslari bo'yicha bilimlar (xalq pedagogikasi tarixi, folklorshunos va etnopedagogika bilimlari); hissiy-baholovchi komponent — milliy san'at va an'analarga nisbatan shaxsiy munosabat, estetik zavq va milliy g'urur hissi; faoliyat-ijodiy komponent — xalq pedagogikasi vositalaridan ta'lim jarayonida metodologik jihatdan to'g'ri va ijodiy foydalanish ko'nikmalari.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar samarali deb topildi: (1) "Milliy madaniyat va etno-estetik tarbiya" maxsus kurslarini joriy etish; (2) hunarmandchilik ustaxonalari, milliy musiqa ansambllari va folklor guruhlari bilan hamkorlik asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil etish; (3) talabalarning xalq o'yinlari, marosimlar va milliy bayramlarda faol ishtirok etishini ta'minlash; (4) talabalar ishlanmalarida xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish orqali yakuniy attestatsiya loyihalarini baholash.

Ekspirimental sinov natijalariga ko'ra, ushbu yondashuv asosida ta'lim olgan bo'lajak o'qituvchilar dars jarayonida xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish darajasi bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan 41% yuqori ko'rsatkich namoyish etdi. Ularning o'quvchilari esa milliy madaniyat va estetikaga qiziqish va milliy o'zlikni anglash ko'rsatkichlari bo'yicha ham farqli ijobiy natijalar ko'rsatdi.

## **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Xalq pedagogikasi vositalari etno-estetik tarbiyaning nafaqat manbai, balki jonli tashuvchisi va yaratuvchisidir. O'zbek xalqining og'zaki ijodi, milliy urf-odat va marosimlari, amaliy san'at va hunarmandchilik namunalari hamda xalq o'yinlari yosh avlodning estetik madaniyatini shakllantirishda o'ziga xos va almashtirib bo'lmaydigan rol o'ynaydi. Ushbu vositalar Vygotsky, Dewey, Gardner, Bandura, Bronfenbrenner va Kolb kabi buyuk pedagoglarning nazariy asoslari bilan uyg'unlikda bo'lib, zamonaviy ta'lim psixologiyasi nuqtai nazaridan ham o'zining yuqori samaradorligini tasdiqlamoqda.

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning etno-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda maqsadli, tizimli va amaliy yo'nalishdagi pedagog tayyorlash zarurligini tasdiqladi. Etno-estetik madaniyati rivojlangan o'qituvchi o'z o'quvchilarida ham milliy o'zlikni anglash, go'zallikni milliy nuqtainazardan baholash va madaniy merosga sadoqat kabi insoniy-estetik fazilatlarni shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsata oladi.

Tavsiyalar: (1) Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Etno-estetik tarbiya va xalq pedagogikasi" maxsus kursini joriy etish; (2) ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar (virtual muzeylar, AR-interfaollik) orqali xalq amaliy san'ati va folklorini kengaytirish; (3) maktab va oliy ta'lim o'rtasida "milliy estetik muhit" konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; (4) mintaqaviy xalq hunarmandlari, folklorchilar va etno-pedagoglari bilan doimiy hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi. 160 b.
2. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. 247 p.
3. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development: Experiments by nature and design. Cambridge: Harvard University Press. 330 p.
4. Dewey, J. (1938). Experience and education. New York: Macmillan. 116 p.
5. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. New York: Basic Books. 440 p.
6. Kolb, D.A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. 256 p.
7. Mavlonova, R. (2003). Xalq pedagogikasi va milliy tarbiya. Toshkent: Fan. 180 b.
8. Muslimov, N. (2010). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 195 b.
9. Musayeva, N. (2015). Etno-estetik kompetensiyani rivojlantirish. Toshkent: O‘qituvchi. 148 b.
10. Qodirov, F. (2001). O‘zbek xalq pedagogikasi: tarix va nazariya. Toshkent: O‘qituvchi. 210 b.
11. Volkov, G.N. (1999). Etnopedagogika. Moskva: Academia. 168 s.
12. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge: Harvard University Press. 159 p.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida". Toshkent.
14. "Ta’lim to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-son Qonuni. (2020). Toshkent: Adolat.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" Farmoni. Toshkent.

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

<b>Kurbanova Nasiba Usmonovna</b> , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
<b>Mahmudova Zulfizar Eson Qizi</b> , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
<b>Sultonova Gulasal Shodmonovna</b> , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
<b>Azimova Dilnoza Orifovna</b> , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
<b>Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi</b> , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
<b>Tosheva N.T, Muhammadova M.F</b> , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
<b>Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu</b> , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
<b>Рузиева Наргиза Омонжоновна</b> , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
<b>Nazarova Aziza Sohib qizi</b> , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
<b>Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi</b> , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
<b>Nadirxanova Nilufar Alesherovna</b> , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
<b>Umedov Shaxzod</b> , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
<b>Omonov Qavmiddin Karimovich</b> , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
<b>Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi</b> , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
<b>Aslonova Emma Sergeyevna</b> , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
<b>Barnoyeva Sevara Uchqun qizi</b> , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
<b>Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna</b> , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
<b>Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich</b> , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
<b>Choriyeva Hilola Avaz qizi</b> , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
<b>D.I.Normatova</b> , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
<b>Toshmatov Bobur Alisher o'g'li</b> , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
<b>Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li</b> , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
<b>Egamova Gulnoza Istam qizi</b> , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
<b>Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi</b> , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	117
<b>Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi</b> , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
<b>Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna</b> , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129